XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-029-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24 - son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 26 dekabrdagi 01-20-08-02-39/188-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari G‘allaorol Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27- dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24 -son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, G‘allaorol tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **129 368 768,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **129 368 768,0 ming.so‘m** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek G‘allaorol tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **821 000,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me`yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1 903 201,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda

oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i T.Qo‘chqorov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining Hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Turdimuratov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Islomov) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Ismoilov), tuman soliq inspektsiyasi (Islomov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Turdimuratov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qononda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalarim, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni “G‘allaorol ovozi” gazetasida rasmiy e‘lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e‘tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Mamirov) hamda tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati G‘allaorol tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/P	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
ЖАМИ		**233 700 158**	**129 368 768**
1	Foyda solig‘i	6 256 000	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	12 774 000	12 774 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	66 592 000	37 957 440
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 304 000	1 304 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	21 600 000	0
6	Aksiz solig‘i jami	26 743 000	5 081 170
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*		
6,2	*pivo*		
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*26 743 000*	*5 081 170*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*3 502 925*	3 502 925
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 262 475	9 262 475
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 565 000	22 565 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	32 250 758	32 250 758
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*1 140 000*	1 140 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*4 392 000*	3 272 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	95 000	95 000
14	Davlat boji	6 271 000	0
15	Yig‘imlar	2 531 000	0
16	Jarimalar	16 257 000	0
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	164 000	164 000

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yilda umumdavlat soliqlaridan G‘allaorol tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me`yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me`yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	57%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	43%
2	**Foyda solig‘i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	19%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	81%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%

	foydalanganlik uchun soliq	Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat budjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yil uchun Jizzax viloyati G‘allaorol tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**129 368 768,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	36 149 851,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	5 477 017,0
2	Madaniyat bo‘limi	5 099 203,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 580 463,0
4	Sport bo‘limi	10 766 657,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 583 840,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 425 643,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1 507 531,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 433 314,0
9	Hokimyat	35 392 359,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*82 304,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*34 650,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 129 858,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 327 451,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 903 201,0*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	788 468,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*172 432,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*616 036,0*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	26 641 439,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
4-ilova

G‘allaorol tuman mahalliy budjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
G‘allaorol tumani	129 368 768,0	129 368 768,0	0,0	129 368 768,0

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
5-ilova

G‘allaorol tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/p	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	G‘allaorol tumani	**821 000,0**

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025 yil uchun tumanda Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/p	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Alamli MFY	0,90	48 826 800,00
2	G‘o‘bdin QFY	0,70	37 976 400,00
3	Do‘stlik MFY	0,90	48 826 800,00
4	Mirzabuloq QFY	0,90	48 826 800,00
5	Moltob QFY	0,70	37 976 400,00
6	Mulkush QFY	0,85	46 114 200,00
7	Xonimqo‘rg‘on QFY	0,80	43 401 600,00
8	Buloqboshi QFY	0,70	37 976 400,00
9	G‘.G‘ulom MFY	0,90	48 826 800,00
10	Guliston QFY	0,80	43 401 600,00
11	Qashqabuloq MFY	0,80	43 401 600,00
12	Oqtom MFY	0,80	43 401 600,00
13	Sarbozor MFY	0,90	48 826 800,00
14	Tozaurug‘ QFY	0,80	43 401 600,00
15	Gulchambar QFY	0,70	37 976 400,00
16	Jiydali QFY	0,70	37 976 400,00
17	Korizquduq QFY	0,70	37 976 400,00
18	Qipchoqsuv QFY	0,70	37 976 400,00
19	Lalmikor MFY	0,85	46 114 200,00
20	Marjonbuloq SHFY	0,85	46 114 200,00
21	Oqtosh MFY	0,70	37 976 400,00
22	Samarqand MFY	0,90	48 826 800,00
23	Baxt MFY	0,85	46 114 200,00
24	Ko‘kbuloq QFY	0,80	43 401 600,00
25	Ko‘kgumbaz MFY	0,85	46 114 200,00
26	Qo‘ytosh SHFY	0,70	37 976 400,00
27	Madaniyat QFY	0,85	46 114 200,00
28	Olimlar MFY	0,85	46 114 200,00
29	Savruk MFY	0,70	37 976 400,00
30	Yashnaobod MFY	0,85	46 114 200,00

31	Uzunbuloq MFY	0,70	37 976 400,00
32	Naxroch MFY	0,70	37 976 400,00
33	Nurafshon QFY	0,90	48 826 800,00
34	O‘zbekiston MFY	0,85	46 114 200,00
35	Qangli MFY	0,85	46 114 200,00

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-3-45-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2025 yil uchun tumanda Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Alamli MFY	1,00	355,52
2	G‘o‘bdin QFY	0,75	266,64
3	Do‘stlik MFY	1,00	355,52
4	Mirzabuloq QFY	1,12	398,18
5	Moltob QFY	0,83	295,08
6	Mulkush QFY	1,12	398,18
7	Xonimqo‘rg‘on QFY	1,00	355,52
8	Buloqboshi QFY	1,11	394,63
9	G‘.G‘ulom MFY	1,00	355,52
10	Guliston QFY	1,12	398,18
11	Qashqabuloq MFY	1,12	398,18
12	Oqtom MFY	1,12	398,18
13	Sarbozor MFY	1,18	419,51
14	Tozaurug‘ QFY	1,12	398,18
15	Gulchambar QFY	0,75	266,64
16	Jiydali QFY	0,75	266,64
17	Korizquduq QFY	0,75	266,64
18	Qipchoqsuv QFY	0,75	266,64
19	Lalmikor MFY	1,00	355,52
20	Marjonbuloq SHFY	1,00	355,52
21	Oqtosh MFY	0,75	266,64
22	Samarqand MFY	1,00	355,52
23	Baxt MFY	1,00	355,52
24	Ko‘kbuloq QFY	0,75	266,64
25	Ko‘kgumbaz MFY	1,00	355,52
26	Qo‘ytosh SHFY	0,79	280,86
27	Madaniyat QFY	1,12	398,18
28	Olimlar MFY	1,00	355,52
29	Savruk MFY	0,75	266,64
30	Yashnaobod MFY	1,00	355,52

31	Uzunbuloq MFY	0,83	295,08
32	Naxroch MFY	0,75	266,64
33	Nurafshon QFY	1,12	398,18
34	O‘zbekiston MFY	1,00	355,52
35	Qangli MFY	1,12	398,18